

BOLALARDA O'QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGIGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR

Tursinova Sabohat Soxibboy qizi

*Namangan viloyati Chust tumani Maktabgacha
va maktab ta'limi bo'limiga qarashli
39-maktab amaliyotchi psixologi*

ANNOTATSIYA

Motivlarning o'zgaruvchanligi, harakatchanligi, xilma-xilligi tufayli ularni muayyan tarkibiy tuzilmasini belgilash, boshqarishning aniq usul va vositalarini belgilash qiyin bo'lib hisoblanadi.

Kalit so'zlar: o'quvchi, boshlang'ich ta'lim, motiv, o'quv motivlari, tafakkur, xotira, intellekt, iqtidor, ruhiy rivojlanish, intellekt.

KIRISH

Boshlang'ich sinflarda yuqori bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o'quvchilarning motivlari sohasini o'rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga - ta'lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida ta'kidlab o'tiladi. Shu munosabat bilan ta'lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o'quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi. Qayd etilgan muammolarni tadqiq etish qator shart-sharoitlarga bog'liq. Olimlarning fikricha, o'quvchilarda o'qish motivlarini shakllanishiga qadriyatlar, oilaviy an'analar, maktab talimidagi ijobiy pedagogik munosabatlar va o'quvchilarni o'z-o'zini anglash kabi omillar o'quv motivatsiyasining shakllanishiga olib keladi. O'quvchilarni muvofiq yondashuvlar va o'quv rejalari bilan ta'minlash, o'quvchilarni boshqarish, ularga muvofiq yondashuvlar va o'quv rejalari taqdim etish ham motivatsiyani oshirishga yordam beradi. Ularga yondashuvchilarining yordami va o'quv rejalari bilan maqsadlari va vazifalari ustida ishlashlari eng foydali bo'ladi.

Yangi va qiziqtiradigan o'qish materiallarini taqdim etish, o'quv materiallarini o'quvchilarning qiziqtirishi uchun yangi va qiziqtiradigan darsliklar, o'quv qo'llanmalari va ilovalar qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu materiallar

o'quvchilarga o'rganishni qulay va qiziqтира oladigon mazmun va mohiyat tarafdан ham tushunishi, o'zlashtirishi onson bo'lgan boshlang'ich sinflarda ko'proq rasimli darsliklar bolani qiziqishini yanada shakillanishiga ko'proq yordam beradi. Po'zitiv o'quv muhit yaratish, o'quvchilarni o'qishga qiziqtirish uchun qiziqishlari va pozitiv o'quv muhiti yaratish juda muhimdir. O'quvchilarni ularga qarshi murojat qilish va o'zlarini o'rganishlari bilan ta'kidlash o'zaro foydali bo'ladi, yani bunda ularga qarshi muhit yaratib qanday yo'llar bilan vaziyatdan chiqishi o'zini qutqarishda o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish bilan mativatsiyasini oshirib ularda qatilylikni oshirish mumkin oldiga qo'ygan maqsadlarga erishishda. O'quvchilarni muvofiq baholash va ma'lumot bermish: O'quvchilarni o'qishlarida yaxshi natijalarga erishishlari uchun ularga pozitiv ma'lumotlar bermoq va ularni muvofiq baholash juda muhimdir. Ularga muvofiq ta'riflar yani natijalariga qarab rag'bat berish, bazi hollarda o'rtaja natija ko'rsatgan o'quvchining ham natijasini yuksak baholash o'qituvchilar tamonidan o'quvchilarni o'qishga qo'shib qo'yishlari uchun ma'lum bir yordam beradi. O'quv motivatsiyalarini o'quvchilarda shakllantirish va rivojlantirish uchun eng muhim narsa, har bir o'quvchining individual xususiyatlarini va talablarini hisobga oluvchi shakilda yondashish va o'rganishdir.

O'smirlar xatti-harakatining yetakchi motivi ularni o'z tengdoshlari jamoasida muhim joy egallash ehtiyoji hisoblanib, ular bilan muomala qilish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Agarda kichik maktab o'quvchisi sinfda o'zini qisilganday noxush his qilsa ham bunday holatga ko'nikib ketadi, ammo o'smir goh xulq-atvor qoidalariga rioya qilib, goho unga zid bo'lgan vositalar yordamida o'z ehtiyojini qondirishga qaror qiladi. Ijtimoiy turmush va faoliyatning ko'rsatishiga qaraganda, har qaysi shaxsda o'z qadr-qiyamatini his etish tuyg'usini shakllantirish maqsadga muvofiq. Ta'lim-tarbiya jarayonida ota-ona va o'qituvchining o'quvchilarga nisbatan pedagogik odobi muhim ahamiyat kasb etadi, shuning bilan birga o'z xatti-harakati natijasini oldindan ko'ra bilish ko'nikmasi bu borada muhim turtki vazifasini bajaradi. Pedagogik odob qoidalari va muomala qilish, ta'sir o'tkazish mexanizmlariga rioya qilish shaxslararo munosabatni barqarorlashtiradi. Zamonaviy o'smir o'zining shaxsiy xususiyatlarini boyitishda uning boshqalar uchun foydali bo'lish istiqbolini ko'radi. Ammo o'smirning intilishlari, o'z qobiliyatlarini anglashi, o'zini shaxs sifatida ko'rsatishi va kattalarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lgan maktab pozitsiyasi o'rtasidagi tafovut, o'z-o'zini hurmat qilish inqirozining chuqurlashishiga olib keladi. Kattalarning bahosini rad etish, ularning to'g'riligidan qat'i nazar, aniq namoyon bo'ladi sababi birinchi navbatda, o'smirning jamoatchilik e'tirofiga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun tegishli shart-sharoitlar yo'qligida, bu o'z-o'zini aniqlashning sun'iy kechikishiga aylanadi, ayniqsa, o'smirlarning tengdoshlari bilan samimiy-shaxsiy va o'z-o'zidan guruhli muloqotga intilishi, har xil turdagi o'smirlar kompaniyalari, norasmiy guruhlar paydo bo'lishida namoyon bo'ladi.

O'z-o'zidan guruhli muloqot jarayonida tajovuzkorlik, shafqatsizlik, bezovtalanish, izolyatsiya va boshqalar barqaror xarakterga ega bo'ladi. O'qituvchi nafaqat o'qitish motivlarini bilishi, balki o'quvchilarni tushunish va ularning motivatsion sohasiga ta'sir qilish uchun bu bilimlarni qo'llay olishi kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning o'qishga bo'lgan munosabati birinchi navbatda o'qituvchining ish sifati va uning o'quvchilarga bo'lgan munosabati bilan bog'liq.

Aytish joyizki, har bir yoshda o'quvchilarning yosh xususiyati ularning dominant motivlarini belgilab beradi. Jumladan o'smirlar o'quv faoliyatining ijtimoiy motivlari ularning boshqa odamlar bilan muomalaga kirishish ehtiyoji bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularni baholash, quvvatlash, tengdoshlari jamoasida muayyan joy egallash singari talablarda o'z aksini topadi. Mazkur motivlar o'quv faoliyatining mohiyati bilan bog'liq bo'lmay, balki unga yondosh yordamchi faktorlarni anglatadi. Ammo ushbu motivlar o'smir o'qishiga jiddiy turtki vazifasini bajaradi. Ta'limning maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ijodiy faoliyat yuritadigan yoshlarni tarbiyalashdir.

G.Najmiddinova tadqiqotlarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini shakllantirish masalalariga alohida yondashilib, o'quv material va uning ustida ishlash orqali o'quvchilarda o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirish mumkinligi asoslab beriladi. O'quv-biluv faoliyatiga oid psixologik tadqiqotlar ilmiy izlanishlarning katta qismini tashkil etadi. L.S.Vigotskiy inson faoliyati va psixikasi – ruhiyatining uzviy bog'liqligi tamoyilini asoslagan edi: psixika faoliyatsiz, faoliyat psixikasiz amal qilmaydi. L.S.Vigotskiyning qarashlarini S.L.Rubinshteyn o'z tadqiqotlarida yanada rivojlantirdi. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, hissiyotlar faoliyat dinamikasi, sur'ati va tonusini belgilaydi. Shuning uchun ham har bir yosh davri uchun xos bo'lgan motivlar sohasining belgilangan rivojlanish qonuniyatlari ta'limning yangi dasturlarini ishlab chiqish hamda unda maxsus vazifalarni belgilash orqali o'quvbiluv motivlarini faollashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. A.N.Leontyev esa motivlar insonga faoliyati uchun, shuningdek, o'quv faoliyati uchun ham turtki bo'ladi va uni yo'naltiradi deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, faoliyat – bu subyektning borliqqa faol munosabatidir. Motiv va maqsadning bir-biriga mos kelishi faoliyatning eng muhim xususiyatidir.

XULOSA

Shuningdek, motiv deganda o'quvchining o'z faoliyati perdmoriga munosabatini ham tushunish mumkin. Motivlar ehtiyoj va qiziqishlar, intilish va hissiyotlar, tayanch tushuncha va ideallar shaklida amal qilishi mumkin. Shuning uchun ham motivlar juda murakkab tuzilma bo'lib, alternativlar, tanlov va qarorlar tahlil qilinadigan, baholanadigan dinamik tizimdir. Motivlashtirishni o'rganish didaktika va pedagogik psixologiyaning markaziy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu borada muayyan yutuqlar qo'lga kiritilgan, ammo muammoning to'la yechimiga hali erishilgani yo'q. Motivlarning o'zgaruvchanligi, harakatchanligi,

xilma-xilligi tufayli ularni muayyan tarkibiy tuzilmasini belgilash, boshqarishning aniq usul va vositalarini belgilash qiyin bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziyev, E. (2010). *Umumiy psixologiya*. Yangi asr avlodi.
2. Davletshin, M. (2002). *Umumiy psixologiya*. TDPU.
3. Suyarov, A. (2017). The present condition of tourism in Samarkand, the results of research survey from tourists in region. SCOPE Acad. HOUSE BM Publ. 103, 41–46.
4. Samarova Shoxista Rabidjanovna, Rakhmonova Muqaddas Qahramanovna, Mirzarahimova Gulnora, Ikromovna, Maratov Temur Gayrat ugli, Kamilov Bobir Sultanovich. (2020). Psychological aspects of developing creative personality and the concept of reduction of creativity to intellect. JCR. 7(17): 498-505. doi: 10.31838/jcr.07.17.69